



O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

Markaziy bankning
2025-2026-yillarga mo'ljallangan

TADQIQOTLAR DASTURI



Tadqiqot dasturining asosiy yo'nalishlari

Kirish

Yo'nalish I

Yo'nalish II

Yo'nalish III

Yo'nalish IV

Yo'nalish V

Yo'nalish VI

I

Monetar siyosatning transmissiya mexanizmlari samaradorligini oshirish, aholi va tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalari tahlili

II

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat samaradorligini baholab borish

III

Moliyaviy barqarorlik, makroprudensial siyosat choralarini tahlil qilib borish

IV

Global iqtisodiyotdagi yangi fenomenlar (demografik o'zgarishlar, geosiyosiy holat hamda fragmentatsiya jarayonlari) ta'sirini baholash

V

To'lov tizimlari ishtirokchilari hamda yangi xizmat turlari kengayib borayotgan sharoitda tizimning barqaror ishlashini ta'minlash

VI

Mikro darajadagi ma'lumotlar asosida iqtisodiyotda moliyalashtirishga bo'lgan talab va taklifni tahlil qilish



KIRISH

Markaziy bankning tadqiqotlarga asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilish zaruriyatidan kelib chiqib, kelgusi ikki yilda o'tkazilishi rejalashtirilayotgan tadqiqotlarda asosiy e'tibor inflyatsiyaga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilib borish, aholi va biznes subyektlarining inflyatsion kutilmalarini tahlil qilish, mamlakatda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, to'lov tizimlari ishtirokchilarining ortishi va kengayib borishi sharoitida tizim barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda, ichki va tashqi iqtisodiy jarayonlarga oid masalalarga qaratiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari, o'z navbatida, iqtisodiy modellarni qurish, samarali iqtisodiy qarorlarni qabul qilish hamda ichki va tashqi iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilib borish, global yangi fenomenlar kirib kelishi sharoitida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni baholab borish va ularni minimallashtirish choralarini ko'rish imkonini beradi.

Har bir yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarimiz orqali asoslantirilgan xulosalar bizga o'zaro ta'sirlarning sabab va oqibatlarini iqtisodiy jihatdan chuqurroq tushunishga va o'z vazifamizni bajarish uchun to'g'ri qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Mazkur tadqiqot yo'nalishlarida ta'kidlangan asosiy g'oya shundaki, tadqiqot dasturi nafaqat iqtisodiy va moliyaviy sohalaridagi o'zgarishlar bilan, balki an'anaviy vositalar har doim ham barcha savollarga javob bera olmasligiga bo'lgan ishonch bilan boshqariladi. Iqlim o'zgarishi va yaqinda yuz bergan Covid-19 pandemiyasi, jahonda kuzatilayotgan geosiyosiy nobarqarorlik va keskinlashuv jarayonlari tadqiqot dasturini qayta shakllantiradigan yangi omillarni yorqin misol sifatida ko'rsatadi. Bizning tahliliy vositalar to'plamimizda yangi, an'anaviy va nostandart yondashuvlar birdek ahamiyatli bo'lib qoladi.

Ta'kidlash joizki, ushbu hujjatda keltirilgan tadqiqot mavzulari bankda olib boriladigan barcha tadqiqotlarning to'liq ro'yxati emas. Bunda markaziy banklar tadqiqotlari uchun yangi yo'nalishlarni belgilaydigan asosiy mavzular qamrab olingan bo'lib, bular an'anaviy markaziy bank tadqiqot yo'nalishlari bilan bir qatorda davom etadi va o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Kirish

Yo'nalish I

Yo'nalish II

Yo'nalish III

Yo'nalish IV

Yo'nalish V

Yo'nalish VI



Kirish

Yoʻnalish	I
Yoʻnalish	II
Yoʻnalish	III
Yoʻnalish	IV
Yoʻnalish	V
Yoʻnalish	VI

Muhim makroiqtisodiy jarayonlarga bogʻliq mavzular doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar xalqaro nufuzli jurnallarda chop etilib, Markaziy bank yoki boshqa mahalliy va xalqaro darajada tashkil etiladigan konferensiyalar, seminarlarda taqdimot tarzidagi ishtiroki ta'minlanadi.

Shuningdek, xorijiy universitet va tadqiqot institutlari bilan birgalikdagi tadqiqotlarni olib borish bo'yicha hamkorlik ishlari ham takomillashtirib boriladi. Biz tadqiqotlardagi kun tartibimizni ochiq e'lon qilish orqali mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar bilan hamkorlikni kuchaytirishni maqsad qilamiz. Bankdan tashqarida faoliyat olib borayotgan yuqori salohiyat va tajribaga ega akademik doiralar va keng tadqiqot jamiyatidan bilim va tajriba olishni istaymiz.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari Markaziy bankning rasmiy ijtimoiy tarmoqlari, shu jumladan, Markaziy bank rasmiy saytining tadqiqotlar bo'limida e'lon qilib boriladi. Har yil yakuni bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar hamda boshqa tahlillar to'g'risida yillik hisobotlar tayyorlanadi va keng jamoatchilikka taqdim etiladi.

Bizning mustaqillik, ochiqlik va fikrlar xilma-xilligiga bo'lgan sadoqatimiz avvalgidek saqlanib qoladi va kelgusi yillarda tadqiqot ishlarimiz ichki va tashqi qarashlarga, shuningdek, tanqidiy nuqtai-nazardan xilma-xil fikrlarni shakllantirishda davom etadi.



I. Monetar siyosatning transmissiya mexanizmlari samaradorligini oshirish, aholi va tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalari tahlili

1.1. Tovar va xizmatlar narxini belgilashda tadbirkorlik subyektlari tomonidan hisobga olinadigan omillar tahlili

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan narx belgilash qarorlari bozorning barqarorligi va inflyatsion jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Narxlarining shakllanishida qanday omillar inobatga olinishi tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyatiga va aholining xarid qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Tovarlarning narxlari o'zgarish chastotasiga ko'ra sezilarli darajada farqlanib, ba'zi tovarlar narxlari har oyda o'zgaradigan bo'lsa, boshqa tovarlar narxlari yiliga bir marta o'zgaradi. Ushbu narx o'zgarishi davomiyligidagi farqlar har bir tovar va xizmatlar narxlari o'zgarishi natijasida hosil bo'ladigan multiplikator effektini turli darajada shakllanishiga olib keladi.

Har bir tovar va xizmatlar narxlarining o'zgarishi umumiy narxlar o'zgarishidan farq qiladi bunga asosiy sabab, tovar va xizmatlar narxlariga ta'sir etuvchi umumiy makro darajadagi omillardan tashqari individual omillarning mavjudligi hisoblanadi.

Shuningdek, narxlar o'zgarishlari ish haqi o'zgarishlari bilan ham bog'liq bo'lib, ayniqsa, ishchi kuchi ko'p talab qilinadigan sohalarda korxonalar tomonidan tovar va xizmatlar narxlarining o'zgartirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Narx belgilashdagi asosiy tendensiyalarni va ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash muhimligidan kelib chiqib, tovar va xizmatlar narxlarining o'zgaruvchanligini tahlil qilish makroiqtisodiy siyosatning aniq va samarali ishlashini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlarining narx belgilashdagi qarorlari iqtisodiyotdagi bozor mexanizmlarining samaradorligini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa, o'z navbatida, bozor ishtirokchilari uchun barqaror strategiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

Narx belgilashga ta'sir etuvchi omillarni empirik va nazariy tahlil qilish orqali iqtisodiy siyosatni takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqilib, ichki bozor barqarorligini ta'minlash bo'yicha maqsadlarni samarali amalga oshirishda qo'llab-quvvatlovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Kirish

Yo'nalish

I

Yo'nalish

II

Yo'nalish

III

Yo'nalish

IV

Yo'nalish

V

Yo'nalish

VI



Kirish

Yo'nalish

I

Yo'nalish

II

Yo'nalish

III

Yo'nalish

IV

Yo'nalish

V

Yo'nalish

VI

1.2. Monetar siyosatning joriy iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini baholash

Bugungi kundagi noaniqliklar kuchaygan sharoitda monetar siyosat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy vositalardan biri ekanligidan kelib chiqib, o'rta muddatli davrda monetar siyosatning makroiqtisodiy rivojlanishga ta'siri turli ssenariylar asosida doimiy baholab borilishi zaruratini oshiradi.

Bu esa, o'z navbatida, chuqur tadqiqotlarga asoslangan tahlillar o'tkazilishini va shu orqali joriy iqtisodiy sharoitlarda optimal qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Bunda, mamlakatning barqaror rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy siyosat va amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati o'rtasidagi bog'liqlik tadqiqotlarimizning muhim obyektlaridan biri bo'ladi. Chunki, ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi muammolarni hal qilish, o'z navbatida, aholi farovonligini ta'minlab, pul-kredit siyosati ta'sirchanligini oshiradi.

Monetar siyosat choralari iqtisodiyotga, xususan ishlab chiqarish hajmi va mehnat bozori ko'rsatkichlariga iqtisodiyotning holatiga qarab turli darajada ta'sir o'tkazishi mumkin. Ya'ni, markaziy bank foiz stavkasi o'zgartirilishi iqtisodiyotga uning qizish fazasidagi ta'siri repressiya holatidagi ta'siridan farqlanishi mumkin.

Bundan tashqari, foiz stavkalarini pasaytirish talabni oshirishi, lekin stavkalarining ko'tarilishi har doim ham iqtisodiy faollikni sekinlashtirmasligi va aksincha bo'lishi ham mumkin. Mazkur holatda monetar siyosatdagi o'zgarishlarga iqtisodiy agentlarning reaksiyalarini tushunish va tahlil qilish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlaridagi reaksiyalar ham o'zaro farqlanishi mumkin, ya'ni moliyaviy sektor tezroq javob bersa, real sektor sekinroq moslashishi mumkin. Uy xo'jaliklari va korxonalarda foiz stavkalarining ta'siri turlicha bo'lib, kichik biznes va past daromadli oilalar nisbatan ta'sirchan hisoblanadi.

Monetar siyosatning joriy iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini o'rganish orqali narxlar barqarorligiga erishish, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun samarali choralar ishlab chiqish maqsadida ushbu yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar olib borilishi zarur.



1.3. Joriy fiskal siyosatning monetar siyosat transmissiyasi, moliya bozorlari va moliyaviy barqarorlikka ta'siri

Kelgusi yillarda joriy fiskal siyosatning monetar siyosat transmissiyasi, moliya bozorlari va moliyaviy barqarorlikka ta'sirini o'rganish Markaziy bankning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. Ushbu masalalar davlatning iqtisodiy siyosat choralarining samaradorligini oshirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun zarur bo'lib, fiskal siyosatning soliq, davlat xarajatlari va tashqi qarz jalb qilish kabi vositalari orqali iqtisodiyotga ta'siri bevosita monetar siyosat transmission mexanizmlari samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Davlat xarajatlarining ortishi ichki talabni oshirishi va inflyatsion bosimni kuchaytirishi mumkin, bu esa monetar siyosatni qat'iylashtirilishiga olib keladi. Shu sababli, fiskal va monetar siyosatning uzviy bog'liqligi va o'zaro transmissiya mexanizmlarini chuqur o'rganish iqtisodiy siyosatning umumiy uyg'unligini ta'minlashda muhim sanaladi.

Fiskal siyosatning moliya bozorlari va moliyaviy barqarorlikka ta'siri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat qarzining hajmi va uni moliyalashtirish mexanizmlari moliya bozorlari uchun asosiy omillardan biri sifatida davlat qarzining o'sishi kapital bozorida likvidlikni kamaytirishi yoki foiz stavkalarini oshirishi mumkin, bu esa xususiy sektorga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, davlat byudjeti defisitining belgilangan parametrlardan oshishi investorlarning qarorlariga bevosita ta'sir qilib, moliyaviy tizimda xavf-xatarlarni yuzaga keltirishi mumkin. Markaziy bank ushbu jarayonlarni tahlil qilish va fiskal siyosatning moliya bozorlariga ta'sirini o'rganish bo'yicha olib boradigan tadqiqotlari orqali barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan choralarni amalga oshiradi.

Bundan tashqari, defisitning kengayishi moliyaviy bozorlarda davlat obligatsiyalariga talabni oshirishi va xususiy sektor investitsiyalarini cheklashi mumkin. Markaziy bank bu holatda foiz stavkalarini nazorat qilish va likvidlikni boshqarish orqali iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi.

Kirish

Yo'nalish

I

Yo'nalish

II

Yo'nalish

III

Yo'nalish

IV

Yo'nalish

V

Yo'nalish

VI



Shu nuqtai-nazardan, fiskal siyosatdagi nomutanosibliklar ta'siri olib boriladigan tadqiqot va tahlillar asosida inobatga olinmasa, bu iqtisodiy nobarqarorlikni kuchaytirishi va monetar siyosat transmission mexanizmlari samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli, fiskal siyosatning moliyaviy tizimga ta'sirini chuqur o'rganish va uning xavflarini aniqlash, ularga qarshi ta'sir choralarini ishlab chiqish jarayonlarida Markaziy bankning bu yo'nalishdagi tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, Markaziy bankning bu yo'nalishdagi tadqiqotlari iqtisodiy siyosat choralarining optimal uyg'unligini ta'minlash, makroiqtisodiy barqarorlikni oshirish va iqtisodiy faollikni rag'batlantirish uchun zarurdir. Ushbu tadqiqotlar natijasida fiskal va monetar siyosatning bir-biriga muvofiqligini oshirish va iqtisodiy jarayonlarni samarali boshqarish, uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Ushbu bo'limda quyidagi tadqiqot mavzulari qamrab olinadi:

- ☐ Tadbirkorlik subyektlarining narx belgilash qarorlariga ta'sir qiluvchi iqtisodiy va institusional omillar tahlili
- ☐ Pul-kredit siyosatining asimmetrik ta'sirini baholash
- ☐ inflyatsiyaning daromadlar notengligiga ta'siri
- ☐ Asosiy foiz stavkasidan depozit va kredit foiz stavkalariga o'tish jarayoniga (*pass-through*) ta'sir etuvchi omillar
- ☐ Depozit va kredit foiz stavkalarining inflyatsiyaga dinamik ta'sirini baholash
- ☐ O'zbekiston pul-kredit siyosatining transmissiya mexanizmida valyuta kanalining o'rne va ahamiyati
- ☐ YaIM deflyatorini prognoz qilish va uning boshqa narx ko'rsatkichlari bilan bog'liqligini miqdoriy baholash
- ☐ O'zbekiston iqtisodiyoti uchun uzoq muddatli muvozanatli optimal kredit o'sish darajasini baholash

Kirish

Yo'nalish

I

Yo'nalish

II

Yo'nalish

III

Yo'nalish

IV

Yo'nalish

V

Yo'nalish

VI



- ☐ inflyatsion kutilmalar va foiz stavkalarining yakuniy iste'molga ta'siri tahlili
- ☐ Fiskal siyosatning pul-kredit siyosati transmission mexanizmlariga ta'sirini baholash
- ☐ Dollarlashuv sharoitida pul-kredit siyosati transmission mexanizmini baholash
- ☐ O'zbekiston iqtisodiyoti uchun Balasso-Samuelson ta'sirini baholash

Kirish

Yo'nalish

I

Yo'nalish

II

Yo'nalish

III

Yo'nalish

IV

Yo'nalish

V

Yo'nalish

VI



II. Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat samaradorligini baholab borish

2.1. Matematik va miqdoriy baholashga asoslangan asosiy fundamental masalalarga oid tahlillarni amalga oshirish

Matematik va miqdoriy baholashga asoslangan fundamental masalalarga oid tahlillar murakkab iqtisodiy jarayonlarni aniqroq tushunish, qaror qabul qilishda ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish va iqtisodiy siyosat choralari optimallashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Matematik modellashtirish inflyatsiya, foiz stavkalari va iqtisodiy o'sish kabi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini chuqur tahlil qilish imkonini bersa, miqdoriy tahlillar esa turli iqtisodiy ssenariylarni baholash va iqtisodiyotdagi xavf-xatarlarni oldindan aniqlashga yordam beradi.

Bunda, DSGE modeli va Miqdoriy integrasiyalashgan siyosat tahlili (Quatitative Integrated Policy Analysis) Markaziy bankning iqtisodiy siyosatni baholashdagi asosiy vositalaridan hisoblanadi. DSGE modeli iqtisodiy tizimdagi o'zaro bog'liq jarayonlarni matematik modellashtirish orqali turli siyosat choralari iqtisodiyotga uzoq va qisqa muddatli ta'sirini tahlil qilish imkonini beradi.

Miqdoriy integrasiyalashgan siyosat tahlili esa iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni birgalikda tahlil qilishga imkon beradi. Ushbu yondashuv turli iqtisodiy siyosat choralari integrasiyalashgan holda baholab, ularning iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikka ta'sirini o'rganadi. Bu esa, o'z navbatida, siyosat choralari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash va resurslardan samarali foydalanishni tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy bankning DSGE va miqdoriy integrasiyalashgan siyosat tahliliga asoslangan tadqiqotlari iqtisodiy siyosatni strategik boshqarish va uning natijalarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu vositalar yordamida iqtisodiy qarorlarning qisqa va uzoq muddatli oqibatlari baholanadi, bu esa, Markaziy bankka aniq va asosli siyosat choralari ishlab chiqishga imkon beradi.

Bugungi kunda ko'p mamlakatlar tomonidan DSGE modeli ishlab chiqilayotgan bo'lib, ushbu modellar yordamida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar turli shoklar ta'sirida qanday o'zgarishi va ushbu holatlarda makroiqtisodiy siyosat qanday bo'lishi aniq tahlillar asosida baholab boriladi.

Kirish

Yo'nalish

I

Yo'nalish

II

Yo'nalish

III

Yo'nalish

IV

Yo'nalish

V

Yo'nalish

VI



Shu bilan birga, ushbu tahlillar yordamida iqtisodiy siyosat vositalarining samaradorligini baholash va ularning iqtisodiyotga ta'sirini prognoz qilish mumkin. Markaziy bank bu borada olib borilgan tahlil va tadqiqotlar asosida iqtisodiy siyosatni shakllantirishda optimal strategiyalarni ishlab chiqish bo'yicha takliflar tayyorlaydi.

2.2. Iqtisodiy siyosat samaradorligini hamda salbiy oqibatlarini umumiy muvozanat hamda ekonometrik modellar asosida baholab borish

Ushbu mavzularga oid tahlillar Markaziy bank tadqiqotlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, umumiy muvozanat modellaridan foydalanish iqtisodiy tizimdagi barcha sektorlarning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish imkonini berib, fiskal va monetar siyosat choralarining iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini chuqurroq o'rganish va optimal iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun muhim vosita sanaladi.

Xususan, uy-joy qurilishi va ipoteka bozorida sistemati risklarni tahlil qilish hamda ijtimoiy himoya maqsadida amalga oshirilgan dasturlar, davlat byudjetidan iqtisodiyot tarmoqlari uchun ajratilgan subsidiyalarning samaradorligini baholab borish maqsadida strukturaviy va ekonometrik modellardan foydalaniladi.

Uy-joy narxlari o'zgarishining makroiqtisodiyotga ta'siri asosan uy-xo'jaliklarining boylik darajasida va iste'mol xarajatlari o'zgarishida hamda mehnat bozori tendensiyalarida o'z aksini topadi. Bunda, uy-joy narxlarining pasayishi aholining boylik darajasiga salbiy ta'sir etish orqali ularning iste'mol ishonchini pasayishiga va buning natijasida, tovar va xizmatlarga ikkilamchi talabning kamayishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, uy-joy narxlarining pasayishi kredit shartlarini qat'iylashtirishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, uy-joy narxlarining pasayishi kredit olishda ta'minot qiymatining kamayishini anglatishi bilan birga, banklar va kreditorlarning ipotekani moliyalashtirish bo'yicha talablarini, xususan boshlang'ich to'lov talablarini oshirishga undaydi. Bu esa, potensial uy-joy sotib oluvchilarning moliyaviy imkoniyatlarini cheklash orqali uy-joyga bo'lgan talabni kamaytirishi va narxlarning yanada pasayishiga olib kelishi mumkin.

Kirish

Yo'nalish

I

Yo'nalish

II

Yo'nalish

III

Yo'nalish

IV

Yo'nalish

V

Yo'nalish

VI



Davlat byudjetidan ajratiladigan subsidiyalar odatda kambag'allik darajasini kamaytirish, milliy boyliklarni qayta taqsimlash yoki energiyaga uzviy bog'liq sohalarni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish maqsadida ajratiladi. Biroq, subsidiyalar ushbu maqsadlarga erishishga xizmat qilmasligi va barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlariga zarar yetkazishi mumkin.

Bundan tashqari, subsidiyalar innovatsiya va investitsiyalarga rag'batni susaytirib, samarasiz texnologiyalar va iste'molga bo'lgan qarashlarni o'zgarishsiz qoldirib, xususiy sektorning raqobatbardoshligini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, energiya sektoriga ajratilgan subsidiyalar, xususan, fiskal nomutanosiblikni ortishiga, boshqa samarali davlat investitsiyalarini (masalan, sog'liqni saqlash, ta'lim yoki transport infratuzilmasiga investitsiyalarni) amalga oshirilmasligiga, energiya tanqisligiga hamda va energiya bilan bog'liq yo'qotishlarning ortishiga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga, Markaziy bankning umumiy muvozanat va ekonometrik modellar asosidagi tadqiqotlari iqtisodiy strategiyalarni takomillashtirish va iqtisodiy subyektlarning hatti-harakatlarini baholab borish va boshqarish, turli shoklar ta'sirini yumshatish uchun ishonchli ilmiy asos yaratadi hamda tegishli tavsiyalar ishlab chiqilishini ta'minlaydi.

2.3. Sun'iy intellekt va mashinali o'qitish texnologiyalari asosida makroiqtisodiy ko'rsatichlarga muqobil ko'rsatkichlarni ishlab chiqish hamda yangi ma'lumot manbalarini shakllantirish

Tadqiqotlarni amalga oshirishning muhim komponentlaridan hisoblangan ma'lumotlar bazasini shakllantirish va bunda, sun'iy intellekt va mashinali o'qitish texnologiyalarini keng qo'llash Markaziy bankning keyingi yillar uchun ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Bunda, tashqi va ichki makroiqtisodiy jarayonlarni muqobil ko'rsatkichlar bilan baholab borish maqsadida qo'llaniladigan statistik ko'rsatkichlar ro'yxati takomillashtiriladi, ma'lumotlar bazalari shakllantiriladi va ularni tahlillar hamda tadqiqotlarda keng qo'llash borasidagi ishlarga katta e'tibor qaratiladi.

Kirish

Yo'nalish

I

Yo'nalish

II

Yo'nalish

III

Yo'nalish

IV

Yo'nalish

V

Yo'nalish

VI



Kirish

Yoʻnalish

I

Yoʻnalish

II

Yoʻnalish

III

Yoʻnalish

IV

Yoʻnalish

V

Yoʻnalish

VI

Ushbu boʻlimda quyidagi tadqiqot mavzulari qamrab olinadi:

- ☐ Oʻzbekiston iqtisodiyoti uchun qurilgan Dinamik stoxastik umumiy muvozanat modelini (DSGE) sterilizatsiyalangan intervensiyalar bilan kengaytirish
- ☐ Yashirin iqtisodiyot koʻlamini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish
- ☐ Uy-joy qurilishi va ipoteka bozorida sistemati risklarni modellar asosida baholash
- ☐ Soliq ma'murchiligidagi oʻzgarishlarning kichik va oʻrta biznes subyektlari faoliyatiga ta'siri
- ☐ Ijtimoiy himoya maqsadida amalga oshirilgan dasturlarini aholi daromadlari va turmush darajasini yaxshilashdagi samaradorligini baholab borish
- ☐ Davlat byudjetidan iqtisodiyot tarmoqlari uchun ajratilgan subsidiyalarning samaradorligi tahlili
- ☐ Xususiyashtirish va yer-mulkka egalik qilish huquqini berish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini baholash
- ☐ Oʻzbekistonning tashqi savdo siyosatidagi kvota va tarifflarning iqtisodiyot tarmoqlariga ta'sirini GTAP (Global Trade Analysis Project) modeli yordamida baholash
- ☐ Sun'iy intellekt asosida sanoat, hududlar hamda korxonalar kesimida iqtisodiy faollikni kuzatib borish imkonini beruvchi ko'rsatkichlar to'plamini shakllantirish va takomillashtirish
- ☐ Elektron to'lov ma'lumotlari asosida uy xo'jaliklari yakuniy iste'molini nauskasting qilish
- ☐ Oʻzbekistonda inson kapitali raqobatbardoshligini baholash
- ☐ Oʻzbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiyalanganlik darajasi hamda xomashyo eksportiga qaramlik masalalari



III. Moliyaviy barqarorlik, makroprudensial siyosat choralarini tahlil qilib borish

3.1. Mikromoliyaviy xizmatlar ko'lami va bozor ishtirokchilari kengayishi sharoitida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash

Hozirgi mikromoliyaviy xizmatlar ko'lami va bozor ishtirokchilari soni ortishi sharoitida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalasi Markaziy bank oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Bir tomondan, mikromoliyaviy xizmatlar ko'lami va bozor ishtirokchilari soni ortishi bilan bog'liq tendensiyalar mikromoliya tashkilotlari faoliyatining iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini o'rganish, ularning moliyaviy barqarorlikka ta'siri va xatarlarini baholab borish zaruratini yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan risklarga asoslangan nazorat tizimlarini, kapital yetarliligi va likvidlik talablari kabi reglamentlarni takomillashtirib borish orqali ularning barqaror va shaffof ishlashini ta'minlash bo'yicha zarur choralar ko'rib borilishini taqozo etadi.

Bundan tashqari, xatarlarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish va ularni minimallashtirishga qaratilgan baholashning yangi usullarini ishlab chiqish, qarzdorlikni nazorat qilish mexanizmlarini va monitoring tizimlarini ilg'or tahlillar orqali takomillashtirish talab etiladi.

Mikromoliya xizmatlari foydalanuvchilarining moliyaviy savodxonligini oshirish ham dolzarb masalalardan biri bo'lib, buning uchun moliyaviy savodxonlik dasturlarini ishlab chiqish, mijozlarni qarz yukini boshqarish va kreditlash shartlarini tushunishga yordam beruvchi trening va ta'lim modullarini tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganib borish, ushbu yo'nalishda fundamental empirik tahlillarni amalga oshirish muhim sanaladi.

Mikromoliya xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini baholash bo'yicha empirik tadqiqotlar olib borish orqali bu xizmatlarning iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, bandlikni oshirish natijasida kambag'allikni kamaytirish va moliyaviy ommaboplikni rivojlantirishdagi o'rni aniq belgilanadi. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan tadqiqot natijalari hamda ularda shakllantirilgan xulosa va takliflar Markaziy bank uchun nafaqat moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, balki mikromoliya sektorining uzoq muddatli va barqaror rivojlanishi uchun muhim hissa qo'shadi.

Kirish

Yo'nalish

I

Yo'nalish

II

Yo'nalish

III

Yo'nalish

IV

Yo'nalish

V

Yo'nalish

VI



3.2. Makroprudensial siyosat natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni baholash

Global siyosatdagi joriy tendensiyalar natijasida moliyaviy barqarorlik bilan bog'liq transmilliy risklarning avj olib borayotganligi, shuningdek, o'tgan davrlarda kuzatilgan global moliyaviy inqirozlar markaziy banklar oldiga makroprudensial siyosatni takomillashtirish vazifasini qo'ydi.

Jahon miqyosida banklararo likvidlik oqimlari, tizimli ahamiyatga ega bo'lgan banklarning xavf darajasini baholash va xatarlarni oldindan aniqlash bo'yicha yondashuvlar va chora-tadbirlar kuchaytirilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, bank tizimidagi turli risklarni aniqlash va ularning o'zaro ta'sirini baholash, xususan makroiqtisodiy risklarning banklar faoliyatiga ta'sirini chuqur o'rganish tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozimligini taqozo etadi.

Shu jumladan, Markaziy bank ilg'or texnologiyalarning banklarga kirib kelishi bilan raqamli bank xizmatlari turlari va ko'lami kengayib borishi sharoitida raqamli moliya ekotizimi bilan bog'liq xavflarni aniqlash va boshqarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish nuqtai nazaridan mazkur yo'nalishda tadqiqotlar olib borishi zarur.

Tadqiqotlarda prudensial normalarga oid ko'rsatkichlarni boshqarish, xatarli vaziyatlarda banklarning kapital va likvidlik talablarini moslashuvchan tartibga solish orqali moliyaviy barqarorlikni saqlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

3.3. Aholining qarz yuki tahlili

So'nggi yillarda O'zbekistonda iste'mol, ipoteka kreditlari va avtokreditlar hajmining oshishi, shuningdek, nasiya savdo orqali aholi tomonidan olingan qarzdorliklar hajmining ortib borayotganligi aholining qarz yuki bilan bog'liq risklarning vujudga kelishi ehtimolini oshirmoqda.

Ushbu omillar iste'molni rag'batlantiruvchi ahamiyatga ega bo'lsada, boshqa tomondan, ortib borayotgan qarz yuki iqtisodiy o'sishga va aholi moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligidan kelib chiqib, kredit riskini baholashda aholining daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvozanatni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish aholi tomonidan mas'uliyatli qarz olishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kirish

Yo'nalish

I

Yo'nalish

II

Yo'nalish

III

Yo'nalish

IV

Yo'nalish

V

Yo'nalish

VI



Kirish

Yo'nalish

I

Yo'nalish

II

Yo'nalish

III

Yo'nalish

IV

Yo'nalish

V

Yo'nalish

VI

Raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi ham aholi qarz yuki tahliliga yangi murakkabliklarni olib kirmoqda. Onlayn kreditlashning kengayishi, bir tomondan, qarz olish imkoniyatlarini osonlashtirsa, boshqa tomondan, qarz yuki bilan bog'liq xavflarni oshirishi mumkin. Shu sababli, raqamli xizmatlarning xavflarini aniqlash va ularni samarali boshqarish strategiyalari ishlab chiqilishiga zarurat paydo bo'ladi.

Kelgusida aholi qarz yukini tahlil qilishda moliyaviy savodxonlikni oshirish, prudensial nazorat vositalarini takomillashtirish, raqamli xizmatlar xavfini boshqarish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilib, iste'mol, ipoteka va avtokreditlar, nasiya savdo orqali olingan qarzlarining umumiy moliyaviy yukka ta'sirini hisobga olib, aholining iqtisodiy hatti-harakatlariga moslashgan siyosat choralarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshiriladi.

Aholi qarz yuki tahlili moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etib, ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar moliyaviy xatarlarni kamaytirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu bo'limda quyidagi tadqiqot mavzulari qamrab olinadi:

- ☐ Mikromoliyaviy xizmatlar va bozor ishtirokchilarining o'sishi sharoitida yuzaga keladigan risklar tahlili
- ☐ Banklarning tizimli risklarini aniqlash va ushbu risklarni kamaytiruvchi nazorat mexanizmlari samaradorligi tahlili
- ☐ Kreditlar hajmini oshirib borish bo'yicha makroprudensial siyosatning real sektorga ta'siri
- ☐ Banklarning kredit foiz stavkalariga ta'sir qiluvchi omillarni banklar o'rtasida so'rovnoma o'tkazish orqali tahlil qilish
- ☐ Kichik biznes subyektlari o'rtasida moliyaviy savodxonlik darajasini so'rovnoma asosida baholash
- ☐ Aholi qarz yukini optimallashtirishda makroprudensial choralar
- ☐ Raqamli moliyaviy xizmatlar rivojlanishi sharoitida yuzaga keladigan risklarni boshqarish



IV. Global iqtisodiyotdagi yangi fenomenlar (demografik o'zgarishlar, geosiyosiy holat hamda fragmentatsiya jarayonlari) ta'sirini baholash

4.1. Global iqtisodiy va siyosiy, shuningdek, savdo siyosatidagi o'zgarishlarning mamlakat makroiqtisodiy siyosatiga ta'siri

Hozirgi globallashuv davrida iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar, shuningdek, savdo siyosatidagi transformasiyalar davlatlarning makroiqtisodiy siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu jarayonlar mamlakat ichki iqtisodiy barqarorligi, milliy moliya tizimi va tashqi savdo balansi uchun muhim omillardan biriga aylangan.

Global savdo va siyosiy o'zgarishlar, xalqaro savdoda davlatlar hamkorlarni qayta o'rganayotganligi va savdo hamkorlari tarkibidagi o'zgarishlar mamlakatlar iqtisodiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bu o'zgarishlarning milliy iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilish maqsadida mavzuga oid tendensiyalarni chuqur o'rganish markaziy banklarning tadqiqotlar yo'nalishlari uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi hamda mazkur o'zgarishlar ta'siri tahlili asosida mos strategiyalar ishlab chiqishda yordam beradi.

Global iqtisodiy sharoitlar, jumladan, xalqaro moliyaviy oqimlar, almashuv kurslaridagi o'zgarishlar va savdo balansi dinamikasi makroiqtisodiy siyosatga ta'sir ko'rsatishini tahlil qilib borish orqali Markaziy bank moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va inflyatsiyani nazorat qilish choralari optimallashtirib boradi.

Bundan tashqari, iqtisodiy va siyosiy muhitning tez o'zgaruvchanligi sharoitida markaziy banklar potensial xavflarni aniqlab, ularni boshqarish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqishida bu sohadagi tadqiqotlarning ahamiyati yuqori sanaladi.

4.2. Mehnat bozori tahlili

Mehnat bozori tahlili ko'plab markaziy banklarning tadqiqot yo'nalishlarida aks etgan bo'lib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va makroiqtisodiy siyosatni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mehnat bozori iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida ishsizlik darajasi, bandlik, ish haqi o'sishi va mehnat unumdorligi kabi omillar orqali iqtisodiy o'sish va barqarorlikni belgilaydi.

Kirish

Yo'nalish

I

Yo'nalish

II

Yo'nalish

III

Yo'nalish

IV

Yo'nalish

V

Yo'nalish

VI



Ishchi kuchi harakati ish haqi inflyatsiyasi va korxonalar samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Agar ishchi kuchi mobilligi yuqori bo'lsa, korxonalar yangi xodimlarni ishga jalb qilishi osonlashadi va ish haqiga bosimni kamaytiradi. Biroq, malakali ishchilarning bozorni tark etishi yoki boshqa davlatga ko'chib ketishi ish haqining oshishiga va natijada inflyatsiyaga olib kelishi mumkin.

Shundan kelib chiqib, global mehnat bozorida migratsiya siyosatining o'zgarishi, migrantlar uchun qo'shimcha cheklovlarning joriy qilinishi, mehnat bozorida raqobatning oshishi, iqtisodiy holat yomonlashishi oqibatida migrantlar ish haqlarining pasaytirilishi kabi omillarni muntazam ravishda tahlil qilib borish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, mehnat bozoridagi dinamika ichki talab, iste'mol va investitsiya darajalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini inobatga olgan holda, monetar va fiskal siyosat choralari bilan tartibga solinadigan mehnat bozori ko'rsatkichlarini o'rganib borish samarali siyosat strategiyalarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ish o'rinlari soniga va bandlikka sezilarli ta'sir ko'rsatib, mehnat resurslarini boshqarishni talab qiladi. Ushbu yo'nalishlarda olib boriladigan tadqiqotlar mazkur o'zgarishlarni oldindan baholash va ularga moslashuvchan milliy siyosatni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

4.3. Global iqlim o'zgarishi sharoitida iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash shartlari

Global iqlim o'zgarishi hozirgi davrning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, bu jarayon iqtisodiyotga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlarini minimallashtirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun moslashuvchan strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan ekologik muammolar iqtisodiy faoliyatning turli sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, qishloq xo'jaligi hosildorligining pasayishi, suv resurslarining yetishmovchiligi va infratuzilma zarar ko'rishi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini xavf ostiga qo'yimoqda.

Kirish

Yo'nalish I

Yo'nalish II

Yo'nalish III

Yo'nalish IV

Yo'nalish V

Yo'nalish VI



Kirish

Yo'nalish I

Yo'nalish II

Yo'nalish III

Yo'nalish IV

Yo'nalish V

Yo'nalish VI

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ekologik jihatdan barqaror texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va yashil investitsiyalarni rag'batlantirish zarur.

Hozirda xorijiy markaziy banklar iqlim o'zgarishiga moslashish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun yangi texnologik yechimlarni o'rganmoqda. Bunda, iqlim o'zgarishlarining inflyatsiyaga salbiy ta'siri, resurslarning narxi va taqsimotidagi o'zgarishlar, shuningdek yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo'llarini aniqlash borasidagi ishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Iqlim o'zgarishi sharoitida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirib borish maqsadida moliyaviy tizimni moslashtirish, xususan banklar va boshqa moliyaviy institutlar tomonidan yashil moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish, yashil iqtisodiyot loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus kredit liniyalari va sug'urta dasturlarini joriy etish, shu bilan birga, korxonalarning ekologik talablar va standartlarga muvofiqligini ta'minlash uchun regulativ siyosatni takomillashtirish borasidagi tadqiqotlar zarur hisoblanadi.

Ushbu bo'limda quyidagi tadqiqot mavzulari qamrab olinadi:

- ☐ O'zbekiston iqtisodiyoti uchun qurilgan Dinamik stoxastik umumiy muvozanat modelini (DSGE) mehnat bozori tahlili bilan kengaytirish
- ☐ Global savdo siyosatidagi o'zgarishlar milliy iqtisodiyotga ta'sirini GTAP (Global Trade Analysis Project) modeli yordamida baholash
- ☐ Texnologik taraqqiyot va global demografik o'zgarishlarning mehnat bozorining tarkibi, ishchi kuchi talab va taklifiga ta'siri
- ☐ Iqlim o'zgarishi, yashil energiya manbalaridan foydalanish sharoitida amalga oshiriladigan moslashuvchan moliyaviy va iqtisodiy choralar tahlili
- ☐ Global migratsiya siyosatidagi o'zgarishlarni tahlil qilib borish orqali uning O'zbekiston iqtisodiyotiga potensial ta'sirini baholash
- ☐ Ishchi kuchi harakatining ish haqqi inflyatsiyasi va korxonalar samaradorligiga ta'siri
- ☐ Tashqi taklif shoklarining inflyatsiyaga ta'sirini baholash



V. To'lov tizimlari ishtirokchilari hamda yangi xizmat turlarining kengayib borayotganligi sharoitida tizim barqaror ishlashini ta'minlash

5.1. To'lov tizimlari rivojlanishi va raqamli bank xizmatlarining kengayishi sharoitida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash

Jahon miqyosida moliya bozori yangi biznes modellari va raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan tarkibiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Raqamli bank xizmatlari zamonaviy moliya tizimida muhim o'rin egallab, mijozlarga qulay va tezkor moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inqilobiy o'zgarishlarni olib kelmoqda. Ushbu xizmatlar nafaqat mijozlarning moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olinganlik darajasining ortishiga, balki banklarning operasion samaradorligini va moliyaviy savodxonlikni oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Raqamli bank xizmatlari mijozlarga istalgan vaqtda va istalgan joyda xizmatlardan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi, xususan, internet va mobil qurilmalar yordamida bank hisoblarini boshqarish, to'lovlarni amalga oshirish va kreditlar olish jarayonlari soddalashtirilgan. Bu, ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi aholi uchun moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olinganlik darajasini sezilarli darajada osonlashtiradi.

Shuningdek, raqamli bank xizmatlari sun'iy intellekt va mashinali o'qitish texnologiyalarini qo'llash orqali mijozlarga individual yondashuvni ta'minlaydi. Masalan, sun'iy intellekt asosidagi chat-botlar mijozlarga tezkor maslahatlar berish va texnik yordam ko'rsatishda samarali hisoblanadi. Bundan tashqari, katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili orqali mijozlarning ehtiyojlari va moliyaviy hatti-harakatlarini chuqurroq tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Raqamli bank xizmatlarining yuqorida keltirilgan afzalliklariga qaramasdan, ular bilan bog'liq kiberxatarlar kabi qator tahdidlar ham mavjud. Kiberhujumlar, ma'lumotlarni buzib kirish va shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash kabi xavflar mijozlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini pasaytirishi, to'lov tizimlari va moliyaviy bozorlarda nobarqarorlik muhitini yaratishi mumkin.

Kirish

Yo'nalish

I

Yo'nalish

II

Yo'nalish

III

Yo'nalish

IV

Yo'nalish

V

Yo'nalish

VI



Shu sababli, zamonaviy xavfsizlik choralarini joriy etish, to'lov tizimlari barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash va mijozlarni kiberxavfsizlik bo'yicha xabardor qilish muhimligidan kelib chiqib ushbu jarayonlarni tadqiqotlar asosida doimiy o'rganib borish muhim sanaladi.

5.2. Yangi texnologiyalar kirib kelishi bilan raqamli pullarning rivojlanib borishi fonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlar tahlili

Global tendensiyalar, xususan, axborot texnologiyalar va raqamli pullarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar markaziy banklar uchun yangi masalalarni keltirib chiqarmoqda.

Ushbu tendensiyalar markaziy banklar tomonidan tartibga solish bo'yicha qarorlar qabul qilishni talab qilmoqda. Yangi raqamli texnologiyalar, xususan, markaziy banklarning raqamli valyutalari xalqaro tranzaksiyalar uchun yanada rivojlangan va qulayroq to'lov vositalari va tizimlarini yaratish imkoniyatlarini ochib berdi.

Mazkur raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi bank sektori, monetar siyosat va makroprudensial siyosat uchun ta'sirlarni tahlil qilish muhimligini ko'rsatmoqda. Xalqaro hisob-kitoblarda mazkur texnologiyalardan foydalanish kapital oqimlari dinamikasiga va iqtisodiyotning dollarlashuvi jarayoniga ham ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Shuningdek, bu kabi yangi texnologiyalarning kirib kelishi sharoitida pulning funksiyalari o'zgarib bormoqda. Bunda, kriptovalyutalar, markaziy bankning raqamli valyutalari kabi vositalarning tez sur'atlarda o'sib borayotganligi ularning moliyaviy tizimdagi o'rni, rivojlanish istiqbollari va monetar siyosat, moliyaviy barqarorlik va to'lov tizimlari uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yangi xatarlar va ta'sirlarni o'rganish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Shu bilan birga, raqamli valyutalar va boshqa innovatsion yechimlarning joriy etilishi ular ustidan nazoratni yanada murakkablashtirishini inobatga olgan holda, ushbu jarayonlarning ta'sirini tahlil va tadqiqotlar orqali baholab borish va zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish Markaziy bankning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Kirish

Yo'nalish I

Yo'nalish II

Yo'nalish III

Yo'nalish IV

Yo'nalish V

Yo'nalish VI



5.3. To'lov tizimlari foydalanuvchilarining kiberxavfsizligini ta'minlash bo'yicha Markaziy bank oldida turgan asosiy masalalar

Hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida to'lov tizimlarining kengayishi va rivojlanishi, bir tomondan, ulardan foydalanuvchilar uchun qulayliklarni oshirib, moliyaviy xizmatlarga kirishni kengaytirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, kiberxavfsizlik masalalari mazkur tizimlarning samaradorligi va ishonchliligini ta'minlashda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

To'lov tizimlarida foydalanuvchilar shaxsiy ma'lumotlari, bank hisobvaraqlari va tranzaksiyalar haqidagi ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash, o'z navbatida, zamonaviy kriptografik texnologiyalarni joriy etish, ikki bosqichli autentifikatsiya va boshqa xavfsizlik choralarini kuchaytirib borishni taqozo etmoqda.

Bunda, to'lov tizimlarini real vaqt rejimida kuzatish, tahdidlarni oldindan aniqlash va zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan xavfsizlik tizimlarini ishlab chiqishda ushbu sohaga oid tadqiqotlar o'tkazilishi muhim hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar asosida shakllantiriladigan tavsiyalar va amalga oshirilishi lozim bo'lgan choralarda to'lov tizimlari foydalanuvchilarining kiberxavfsizlik borasidagi bilim va malakalarini oshirish, ularga firibgarlik sxemalari va xavf-xatarlardan himoyalaniş masalalari ham inobatga olinadi.

Ushbu bo'limda quyidagi tadqiqot mavzulari qamrab olinadi:

- ☐ Raqamli bank xizmatlari va to'lov tizimlari kengayishining iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlikka ta'siri
- ☐ Markaziy bank raqamli pullarining monetar siyosatning transmission kanallariga ta'siri
- ☐ Blokcheyn texnologiyalarining to'lov tizimlariga ta'siri
- ☐ Markaziy bankning kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun texnologik va tartibga soluvchi choralari tahlili
- ☐ Moliyaviy texnologiyalar va to'lov tizimlaridagi innovatsiyalarning moliyaviy ommaboplikka ta'siri
- ☐ Iste'molchilarning raqamli moliyaviy firibgarlikka ta'sirchanligini o'rganish
- ☐ Aholining bank bilan qamrovini tahlil qilish, uning aholi xarajatlari, jamg'arma va investitsiyalariga ta'siri
- ☐ Raqamli to'lov tizimlarining qamrovi va korxonalarning moliyaviy shaffofligiga bog'liqligi tahlili

Kirish

Yo'nalish

I

Yo'nalish

II

Yo'nalish

III

Yo'nalish

IV

Yo'nalish

V

Yo'nalish

VI



VI. Mikro darajadagi ma'lumotlar asosida iqtisodiyotda moliyalashtirishga bo'lgan talab va taklifni tahlil qilish

6.1. Uy xo'jaliklari va korxonalarning kredit olishga bo'lgan imkoniyatlari, korxonalarning o'sishiga, yaratilishiga ta'sirini tahlil qilish

Kredit resurslari bir tomondan, tadbirkorlik subyektlari uchun ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi korxonalarni tashkil etish va texnologik modernizatsiyani amalga oshirishda asosiy moliyaviy manba bo'lib xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, moliyaviy resurslarning mavjudligi aholi daromadlari va investitsiya jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Kredit olish imkoniyatlari banklar va nobank kredit tashkilotlari tomonidan belgilangan shartlar, foiz stavkalari, kafolat mexanizmlari hamda davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatiga bog'liq bo'lib, bu jarayonlarda kredit resurslariga yetarli darajada ega bo'lmaslik tadbirkorlarning rivojlanishiga to'siq bo'lishi va aholining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shuningdek, moliyalashtirish imkoniyatlarining kengayishi yangi ish o'rinlari yaratilishi, aholi xarid qobiliyatining oshishi va investitsion faollikning kuchayishiga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash orqali aholi farovonligiga erishish maqsadida uy xo'jaliklari va korxonalarning kredit olishga bo'lgan imkoniyatlarini takomillashtirish hamda kreditlash mexanizmining ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini chuqurroq o'rganish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilishi muhim sanaladi.

Mazkur tadqiqotlar mikro darajada o'tkazilishi muhim bo'lib, o'z o'rnida, mikro ma'lumotlar uy xo'jaliklari va biznesning pul-kredit siyosatiga, inflyatsiyaga va moliyaviy zarbalarga qanday javob berishini aniqroq o'rganish imkonini beradi. Agregatsiyalangan ma'lumotlar tahlili iqtisodiy siyosatdagi o'zgarishlar ta'sirini chuqurroq tushunishni qiyinlashtirsa, aksincha, mikro darajadagi ma'lumotlar ushbu o'zgarishlarning har bir iqtisodiyot subyektlariga qay darajada ta'sir qilishini aniqroq ko'rsatib beradi.

Ta'kidlash joizki, aholi va tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning yetarli darajada bo'lmasligi yashirin iqtisodiyotning rivojlanishiga ham ta'sir etishi mumkin.

Kirish

Yo'nalish

I

Yo'nalish

II

Yo'nalish

III

Yo'nalish

IV

Yo'nalish

V

Yo'nalish

VI



Yashirin iqtisodiyot iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir etuvchi asosiy omillardan bo'lib, soliq tushumlari kamayishi hisobiga davlat byudjetida yo'qotishlar, rasmiy sektorda ish o'rinlarining kamayishi va iqtisodiy shaffoflikning zaiflashishiga sabab bo'ladi.

Bu muammoni bartaraf etishda bank kreditlari va boshqa rasmiy moliyalashtirish manbalari muhim o'rin tutib, tadbirkorlik subyektlari va aholini rasmiy moliyaviy tizimdan foydalanishga undash orqali yashirin iqtisodiyot ulushini sezilarli kamaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, biznes rivojlanishi uchun rasmiy moliyaviy resurslarni taqdim etish, kafolatlangan tizimlarni joriy qilish, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish hamda tadbirkorlik subyektlari uchun engillashtirilgan soliq rejimlarini taklif qilish yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga yordam beradi.

6.2. Kredit tashkilotlarida kredit skoringi tizimi tahlili

Kredit skoringi tizimi kredit tashkilotlariga qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish, qarz oluvchilar uchun tezkor va adolatli kredit baholash imkoniyatini yaratish, tavakkalchiliklarni kamaytirish, moliyaviy shaffoflikni oshirish va qarz berish amaliyotlarini takomillashtirishga yordam beradi.

Moliyaviy barqarorlik va xavflarni boshqarish nuqtai-nazaridan kredit skoringi tizimlarining samaradorligini baholash muhim ahamiyatga ega bo'lib, kredit tashkilotlari tomonidan tavakkalchilikni baholashdagi xatolar bank sektorining umumiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Markaziy bank ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlari bilan kredit tashkilotlaridagi skoring modellarining qanchalik ishonchli va samarali ekanligini tahlil qilish orqali moliyaviy xavflarni boshqarish bo'yicha takliflar ishlab chiqishi mumkin.

An'anaviy kredit skoring modellari moliyaviy tarixi yo'q yoki ma'lumotlari cheklangan shaxslarni kreditlashda muammolarga duch keladi. Shu sababli, skoring modellarining samaradorligini baholash, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida kredit berish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish muhim.

Kreditlashning iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilish maqsadida skoring baholash mexanizmlarining tadbirkorlikni rivojlantirishga, investitsiyalar hajmiga va aholi xarid qobiliyatiga qanday ta'sir o'tkazishini tahlil qilish Markaziy bankning makroiqtisodiy siyosatini takomillashtirishda yordam beradi.

Kirish

Yo'nalish

I

Yo'nalish

II

Yo'nalish

III

Yo'nalish

IV

Yo'nalish

V

Yo'nalish

VI



Umuman olganda, Markaziy bank kredit skoringining xavf va samaradorligini chuqurroq o'rganish, kredit tashkilotlari uchun tavsiyalar ishlab chiqish va kredit bozorini barqarorlashtirish maqsadida regulyator funksiyalarini kuchaytirish uchun tadqiqotlar o'tkazishi zarur.

Tadqiqot natijalari kredit tizimining shaffofligini oshirish, bank va moliyaviy institutlar o'rtasida standartlashtirilgan yondashuvlarni joriy etish va aholi hamda tadbirkorlar uchun kredit olish imkoniyatlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ushbu bo'limda quyidagi tadqiqot mavzulari qamrab olinadi:

- ☐ Iqtisodiyotdagi jismoniy shaxslar va tadbirkorlik subyektlarining xulq-atvori tahlili
- ☐ Kredit olish imkoniyati cheklanganligining iqtisodiy o'sishga ta'siri
- ☐ Xufiyona iqtisodiyotda, bank tizimidan tashqari aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyoji, kapitalning mavjudligi va kapitalga to'siqlari tahlili
- ☐ Xufiyona iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan mavjud bo'lgan va/yoki yangi choralar qanchalik tadbirkorlik subyektlarini yanada o'sishga, faoliyatini, hisobotlarini shaffoflashishiga va natijada ularda moliyalashtirishga bo'lgan imkoniyatiga ta'siri tahlili
- ☐ Kredit tashkilotlari tomonidan ajratiladigan noan'anaviy kreditlarga bo'lgan talab va taklif (shu jumladan, qarz yuki, kredit berish jarayoniga ta'sir qiladigan ma'lumotlar va omillar) tahlili
- ☐ Kredit tashkilotlari olib boradigan turli baholashlar (due diligence) jarayonida inobatga olinayotgan yoki olinishi mumkin bo'lgan noan'anaviy ma'lumotlarning qaror qabul qilish va defolt darajasiga ta'siri tahlili
- ☐ Joriy kredit skoring tizimining qarzдорlarning defolt darajasini, kreditni qaytarmaslik xatarlarini qanchalik tushuntirishi tomondan tahlili

Kirish

Yo'nalish

I

Yo'nalish

II

Yo'nalish

III

Yo'nalish

IV

Yo'nalish

V

Yo'nalish

VI



Statistika va tadqiqotlar departamenti tomonidan tayyorlandi.
Takliflar va hamkorlik bo'yicha murojaatlar uchun:

E-mail: sturginboev@cbu.uz

Tel: +998-71-212-60-09